

“MEDEYA” TRAGEDIYASIDA XARAKTERLAR TALQINI

Z.Tojimatova

FDU o'qituvchisi

M.Hamdanova

FDU talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Yunon tragik shoiri, komediyanavisi Yevripidning hayoti va ijodi hamda mifologik qarashlari mahsuli bo'lmish “Medeya” tragediyasining bosh qahramoni Medeya obrazini tahlil qilamiz, ushbu xarakterdagi murakkabliklar, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar haqida fikr yuritamiz.*

Kalit so'zlar: *Obraz, xarakter, antik davr, mifologiya, ellinizm, argonavtlar, konflikt, ma'buda*

Asrlar davomida o'z dolzarbligini yo'qotmay kelayotgan antik davr adabiyotining uch yirik vakili bor, ular Esxil, Sofokl va Yevrepid. Rivoyatlarga ko'ra Salamin yaqinidagi g'alaba nishonlayotganda (mil.avv.480-yil) Esxil g'olib askarlar safida bo'lgan. G'alaba bayrami uyushtirilgan o'yinlarda Sofokl o'zini ko'rsatgan va xuddi shu kuni dehqon Mnesarx oilasida Yevrepid dunyoga kelgan.

Ming afsuslar bo'lsinki, shoir tiriklik chog'ida, yunon xalqi oldida shuhrat va qadr topmadi. Zamondoshlari uning asarlarini, ayniqsa, komediyalarini ko'p tanqid qilishgan. “Ammo yunon tarixining keyingi yillarida, Ellinizm⁴⁶ davrida u o'z xalqining sevimli fojia-navis shoiriga aylandi. Hatto Esxil va Sofokl ham uning dovrug'i ostida qolib ketdi. Uning 92 ta asaridan 17 ta tragediyasi va 1 ta satirik dramasi bizgacha yetib keldi..”⁴⁷

Yevrepidning yunon tragediyasiga kiritgan yangiliklarini o'zida yaqqol aks ettirgan asari – “Medeya” tragediyasidir. Asar voqeasini Yevrepid “Argonavtlar”⁴⁸ afsonasidan olgan.

“Bir qancha Yunon pahlavonlari Yason boshchiligida oltin mo'ynani olib kelish uchun “Argo” kemasida Kolxida eliga jo'naydilar. U yerda podshoning qizi, quyosh ma'budasi Geliosning nabirasi go'zal Medeya Yasonni sevib qoladi, uni deb ota-onasi, vatanidan voz kechadi, akasini o'ldiradi. Oltin mo'ynani Yunonistonga olib kelgach, ular turmush quradilar. Bir qancha muddat o'tgach, Yason Korinf shohi Kreontning qizi Glafkaga uylanmoqchi bo'ladi...

...Yevrepidning asari xuddi ana shu joydan boshlanadi. Bevafoqlikdan g'azablangan Medeya eridan qasos olishga ahd qiladi, kelin, uning otasi va o'z farzandlarini o'ldirib, ajdaholar qo'shilgan aravada uchib ketadi. “Medeya” haqoratlangan sevgi va rashk

⁴⁶ Makedoniya, Yunoniston, O'rta dengizning sharqiy sohillari, G'arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining Aleksandr (Iskandar) istilosi (miloddan avvalgi 334—323 yillar)dan miloddan avvalgi 30 yilda Misr Rim qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgan paytgacha o'tgan davr.

⁴⁷ wikipedia.com, “Yevrepid”

⁴⁸ (yun. Argonautai; Argo — kema nomi va nautes — dengizchi) — yunon mifologiyasidagi qahramonlar.

haqidagi asar. Evripid juda katta mahorat bilan burch va ehtiros o'rtasidagi kurashdan azoblangan qahramonlar ruhiyatini tasvirlaydi..."⁴⁹

Asarda Medeya obrazi xarakter darajasiga ko'tarilgan. Medeyani tahlil qilish uning murakkabligi va xarakterining nozik tomonlarini tan olishni talab qiladi. U aql-idrok, topqirlik va qat'iyat kabi tahsinga sazovor fazilatlarga ega bo'lsa-da, uning harakatlari, xususan, go'daklarni o'ldirish kabi jirkanchlikka tayyorligi an'anaviy ezgulik tushunchalariga qarshi turadi. Medeya – tuyg'ulari yo'lida haddan tashqari xudbinlikka bora oladigan, ba'zan insoniy chegaralardan chiqadigan va begunoh odamlarga zarar yetkazadigan, doimiy ichki konfliktda yashaydigan qahramon.

Medeyaning harakatlari u chekkan azob-uqubatlar va xiyonat nuqtai nazaridan tushunarli bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uni "ijobiy" xarakter sifatida ko'rish subyektivdir va individual talqinga bog'liq. Ba'zilar Medeyaning ahvoliga hamdard bo'lib, uni vaziyatlar tufayli haddan tashqari ko'tarilgan fojiali shaxs sifatida ko'rishlari mumkin, boshqalari uning xatti-harakatlarini kechirib bo'lmaydigan deb qoralashlari mumkin. Oxir oqibat, Medeya qahramoni butunlay yaxshi yoki yomon deb oddiy tasniflashdan ko'ra, tahlil va muhokamani talab qiladi.

Medeya xarakterida quyidagi xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratish zarur: 1. Aql va g'urur. Asarda Medeya juda aqlli va g'ururli qahramon sifatida tasvirlangan. U o'z aql-idrokini maqsadlariga erishish uchun vosita sifatida ishlatadi.

Jumladan, asarninng bir o'rnida Yason Medeyaga pul taklif qiladi, Medeya esa:

"Nomus evaziga olingan zar - boylikni netay,
Azobmasmi, tashvishvasmi, turgan bitgani?
Pul-mullaring, oshnolaring boshingda qolsin,
Vafosiz er muruvvati qo'lni kuydirur,
Taklif qilma, olmayman zinhor..."⁵⁰

Parchadan ko'rinib turibdiki, Medeya saroydan haydalayotgan, saroy malikasidan sariq chaqasiz cho'riga aylanayotgan bir paytda asl shaxsiyatini yaqqolroq namoyon qiladi. Bu o'rinda Medeya obrazida nomus har nedan ustun ekanligi anglashiladi.

2. Kuch va qat'iyat. Ko'p qiyinchiliklar va to'siqlarga duch kelganiga qaramay, Medeya o'rni kelganda kuch va qat'iyatni namoyish etadi. U Yasonni sevib qoladi va unga oltin mo'ynani qo'lga kiritishdagi har bir topshiriqni bajarishga yordam beradi.

Medeya itoatkor bo'lishdan bosh tortadi. U shuncha muhabbat va qurbonliklari evaziga xiyonat ko'rgandan so'ng Yasonga quyidagi so'zlarni aytadi:

"...Menmasmidim, saqlab qolgan seni o'sha mudhish o'limdan,
Menmasmidim, oltin mo'ynani seni deya olib qochgan,
Menmasmidim, otamdan kechib, o'z akamning qotili bo'lgan,
Bir seni deb Fessaliyaga hayyo-hayt deb ravona bo'lgan..."⁵¹

⁴⁹ "Chet el adabiyoti tarixi", Qosimov A., Xo'jayev S., Farg'ona, 2016, 105-106-betlar

⁵⁰ "Medeya", Asqar Qosimov tarjimasi, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1985, 43-b.

⁵¹ "Medeya", Asqar Qosimov tarjimasi, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1985, 57-b.

Medeya oldida turgan ana shuncha qiyinchiliklar-u to'siqlarga qaramay, sevgisi uchun qat'iyat bilan kurashadi, lekin Yasonning xiyonati uni batamom umidlarini yo'qqa chiqarib, qalbida nafrat urug'larini ekadi.

3. Murakkablik va ziddiyat. Medeya qarama-qarshiliklar xarakteridir. Yason uchun qilgan o'tmishdagi qurbonliklarida ko'rsatilganidek, u buyuk sevgi va sadoqatga qodir bo'lsa-da, xiyonatga uchraganda tasavvur qilib bo'lmaydigan shafqatsizlik va zo'ravonlikka qodirdir. Hattoki o'z farzandlarini o'ldirishga ham: "...Farzandlarimni gumdon qilib ketaman hozir,

Agar o'zim o'ldirmasam yovlar o'ldirar,
Ammo o'sha bir xil yakun, bari bir ajal,
Qismatlari shu ekanda,.. Bu qonli ishning
Uddasidan chiqsa tuzuk onaning o'zi..."⁵²

Xulosa qilib aytganda, "Medeya" tragediyasi faqatgina olovli muhabbatdan vulqonli nafratga aylangan sevgi qissasi emas. Asarda ijodkor ushbu xarakter orqali insonlardagi tuyg'ular murakkabligini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan, nazarimda. Ushbu asar haqida adabiyotshunos olim Mahkam Mahmudov quyidagi fikrlarni bildirgan: "...Medeya" (Yevripid) tragediyasining g'oyasi o'ta shaxsiy, oilaviy sevgisi oyoqosti qilingan ayol bevafo eri Yasondan qasos olish maqsadida ikki farzandini o'z qo'li bilan o'ldiradi. Keyinroq aniqlanishicha, Medeya bunday ish qilmagan, buni Evripid to'qigan ekan. Har qanday badiiy asar syujeti orqali adib ijtimoiy va poetik g'oyani ochishda xarakterlardan foydalanadi, xarakterlar to'qnashuvi orqali asar g'oyasini ochadi..."⁵³

Shu ma'noda Yevrepid Medeya tragediyasini yuksak mahorat bilan yozgan, asardagi muammolar har bir davr uchun dolzarbdir. Zero, haqiqiy san'at namunalari zamon va makon tanlamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Chet el adabiyoti tarixi", Qosimov A., Xo'jayev S., Farg'ona, 2016
2. "Medeya", Asqar Qosimov tarjimai, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1985
3. "Antik adabiyot tarixi" Abdurahmon Alimuhamedov
4. wikipedia.com
5. zyouz.com

⁵² "Medeya", Asqar Qosimov tarjimai, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1985, 84-b.

⁵³ "Badiiylik mezonlari", Yozuvchi Shodmon Otabek va adabiyotshunos Mahkam Mahmudov suhbat, zyouz.com, 2015-yil, 10-mart